

**“Olmaliq KMK” AJ
korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha
joriy etilgan tizimning holati to‘g‘risidagi
hisobotini shakllantirish va taqdim etish
tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Olmalik KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda (keyingi o‘rinlarda – Kombinat) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi hamda korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobotlarni shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo‘yicha jamlanma hisobotlarni (keyingi o‘rinlarda – hisobotlar) shakllantirish va taqdim etish uchun mas‘uliyat Komplaens-nazorat xizmati (keyingi o‘rinlarda – Xizmat) hamda ijro apparatidagi bo‘limlar va tarkibiy bo‘linmalarning rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

3. Kombinat ijro apparati bo‘limlari (departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat, sektor, byuro, ofis va boshqalar) hamda tarkibiy bo‘linmalarda (korxonalar, sexlar, fabrikalar va boshqalar) hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilish uchun mas‘uliyat va javobgarlik bo‘linmalar va korxonalaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat uchun yuklatilgan mas‘ul xodim (keyingi o‘rinlarda – Komplaens ofitser/Komplaens ambassador/Komplaens koordinator) zimmasiga yuklatiladi.

II-bob. Hisobot turlari va ularni tuzish davriyligi

4. Kombinat ijro apparati bo‘limlari (departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat, sektor, byuro, ofis va boshqalar) hamda tarkibiy bo‘linmalarda quyidagi hisobot turlari va shakllari tuziladi:

a) Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi, shu jumladan, Kombinatning korrupsiyaga qarshi Dasturi yoxud Yo‘l xaritasida belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi holati bo‘yicha hisobot har chorakda Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan mazkur Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

b) Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot har chorakda Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

5. Hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan, shuningdek, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o‘tkazilgan yoxud o‘tkazilmaganligidan qat’iy nazar, tuziladi.

6. Yilning IV choragi uchun hisobot tuzilmaydi, aksincha umumlashtirilgan jamlanma yillik hisobot tayyorlanadi.

7. Choraklik va yillik hisobotlar Kombinat boshqaruvi raisiga, Kombinat Kuzatuv kengashiga hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatli davlat organi boshqa manfaatdor davlat idoralariga topshiriladi.

8. Kombinatning choraklik hamda yillik umumlashtirilgan jamlanma hisobotlari ijro apparatidagi Komplaens-nazorat xizmati tomonidan ijro apparatidagi bo'limlar hamda barcha tarkibiy bo'linmalar (korxonalar, sexlar, fabrikalar va boshqalar) tomonidan kiritilgan hisobotlar asosida shakllantiriladi, har chorak yakuni bilan, hisobot davridan keyingi oyning (o'n beshinchi) sanasidan kechiktirmay kombinatning umumlashtirilgan jamlanma hisobotini O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o'rinlarda – Agentlik) taqdim etadi.

9. Kombinatning choraklik va yillik umumlashtirilgan jamlanma hisobotidagi umumiy axborot Kombinatning internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Mazkur axborot Kombinatning Komplaens-nazorat xizmati tomonidan tayyorlanadi. Kombinatning Axborot (Matbuot) xizmati hamda Axborot texnologiyalari departamenti boshqa bo'limlar birgalikda Xizmat tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni (hisobot davridan keyingi oyning o'ninchi sanasidan kechiktirmay) zudlik bilan joylashtirishni ta'minlaydilar.

III-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risida hisobotni shakllantirish tartibi

10. Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, Kombinat tizimida joriy etilgan korrupsiyaga qarshi Dasturlar, Chora-tadbirlar, Yo'l xaritasi va boshqa hujjatlarda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi holatini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

11. Bunday hisobot har chorakda Komplaens-nazorat xizmati tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 10 (o'ninchi) sanasidan kechiktirmay tuziladi va Boshqaruv raisiga, Kuzatuv kengashiga hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli davlat organiga taqdim etiladi.

12. Hisobotlarni shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) hisobot davridan keyingi oyning 2 (ikkinchi) sanasidan kechiktirmay, Kombinat Komplaens-nazorat xizmati tomonidan, ijro apparatidagi barcha bo'limlar hamda tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga hisobot davridan keyingi oyning 5 (beshinchi) sanasigacha qadar mazkur Nizomning 1-ilovasidagi shaklga muvofiq hisobot taqdim etish to'g'risidagi xabarnomani yuboradi;

b) Kombinat ijro apparati bo'linmalarining hisoboti, shuningdek tarkibiy bo'linmalarining hisobotlari tegishincha ulardagi Komplaens ofitser/Komplaens ambassador/Komplaens koordinatorlar vazifasi yuklatilgan xodimlar tomonidan tayyorlanadi hamda belgilangan muddatlarda ijro apparatidagi Komplaens-nazorat xizmatiga umumlashtirish/jamlanma hisobotni tayyorlash uchun taqdim etiladi.

Komplaens-nazorat xizmati tomonidan umumlashtirilgan Jamlanma hisobot Boshqaruv raisi tomonidan ko'rib chiqib tasdiqlanadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to'g'risidagi hisobotning biron-bir ustunidagi/bo'limidagi topshiriqlar ijrosi bo'yicha tegishli tadbirlar o'tkazilmagan taqdirda, ushbu/tegishli ustunda/bo'limda tadbirlar amalga oshirilmaganligining sabablari ko'rsatiladi.

v) Hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi, shuningdek hisobotdagi axborotni tasdiqlovchi hujjatlar ham taqdim etilishi lozim;

g) Komlaens-nazorat xizmati ushbu Nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan shaklga muvofiq, Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizimning faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiy/jamlanma hisobotni tuzadi hamda qo'shimcha ravishda unga ushbu Nizomning 1-ilovasidagi shakl bo'yicha Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida/qirqimida tuzilgan hisobotdagi ma'lumotlarni kiritadi.

Hisobotda asosiy axborotni o'zida aks ettirgan qisqacha ma'lumotnoma hamda takliflar bo'lishi lozim. Yillik hisobot o'z ichiga o'tgan yilning xuddi shu davriga nisbatan ayni shunday ko'rsatkichlariga ega bo'lgan solishtirma tahlilni ham aks ettirishi lozim.

13. Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimning faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi Jamlanma (umumiy) hisobotni tuzishda Komplaens ofitser/Komplaens ambassador/Risk menedjerlar tegishli bo'linma xodimlaridan zarur hujjatlar, tushuntirish va statistik ma'lumotlarni so'rash va olish huquqiga ega.

14. Komplaens-nazorat xizmati qisqa ma'lumotnoma biriktirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi Jamlanma (umumiy) hisobotni hisobot davridan keyingi oyning 21 (yigirma birinchi) sanasiga qadar Boshqaruv raisiga taqdim etadi.

IV-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturlarida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish tartibi

15. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot ushbu Nizomning 3-ilovasidagi shaklga muvofiq tuziladi.

16. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot Komplaens-nazorat xizmati tomonidan Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi jamlanma (umumiy) hisobot bilan bir vaqtda tuziladi.

17. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilganligi to'g'risidagi hisobot Boshqaruv raisi tomonidan ko'rib chiqib tasdiqlangandan keyin Kuzatuv kengashiga hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli davlat organiga yuboriladi. Hisobotdagi umumiy ma'lumotlar internet tarmog'idagi Kombinatning rasmiy sahifasida Axborot (matbuot) xizmati tomonidan Kombinatning boshqa mutasaddi bo'lim va bo'linmalari bilan birgalikda joylashtirilishi ta'minlanadi.

V-bob. Yakuniy qoidalar

18. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga, Kombinatning ichki normativ hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, shuningdek ilg'or xalqaro amaliyot o'zgarganda qayta ko'rib chiqiladi.

Komplaens-nazorat xizmati mazkur Nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish uchun mas'ul hisoblanadi.

19. Kombinat va uning tarkibida ishlovchi barcha xodimlar ushbu Nizomning qoida va talablariga rioya etishi shart hisoblanadi.

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”
AJdagi korrupsiyaga qarshi kurashish
bo‘yicha tizimning holati to‘g‘risidagi
hisobotni shakllantirish va taqdim etish
tartibi to‘g‘risidagi Nizomga 1-ilova

**“Olmaliq KMK” AJ ijro apparatidagi bo‘limlar hamda tarkibiy bo‘linmalarda
korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining
faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobot**

Ijro apparatidagi bo‘limlar yoxud tarkibidagi bo‘linma nomi:	
Hisobotni tayyorlagan xodim (Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ullar):	F.I.SH., lavozimi, tuzilma nomi, tabel raqami
Hisobot davri:	
Hisobot tayyorlangan sana:	

T/r	Tadbirlar guruhining nomlari	Tadbirlarning nomlari	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar	Ijro to‘g‘risida belgi	Ijro etilmagan bo‘lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat	Bajarilganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo‘lsa sabablari

T/r	Tadbir	Natijalar
I. Siyosatlar va proseduralar		
1.	Ichki normativ hujjatlarni moslashtirish	Kombinat ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalarda hisobot davri uchun

	(takomillashtirish/muvofiqlashtirish)	moslashtirilgan (o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha choralar yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tartib-taomillarga ega bo'lgan ichki normativ hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va h.k.) ko'rsatish zarur.
2.	Xavf-xatarga moyil vazifa va tartib-taomillar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid korrupsiyaga qarshi joriy etilgan yangi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki normativ hujjatlarni ishlab chiqish.	Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan tartibga soluvchi ichki normativ hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ko'rsatish zarur.
II. Shaxsiy namuna		
3.	Kombinat boshqaruvi a'zolari, ijro apparati bo'limlari (departament, boshqarma, bo'lim, xizmat, sektor, byuro, ofis va boshqalar)ning rahbarlari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar, sex, fabrika va boshqalar) rahbarlari va o'rinbosarlarining ichki tadbirlardagi, OAVdagi, ijtimoiy tarmoqlardagi korrupsiyaga nisbatan oshkora ifoda etilgan munosabati chiqishlari (nutqlar, intervyular).	3-6-bandlarda Kombinat boshqaruvi a'zolari, ijro apparatidagi rahbarlar hamda tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va o'rinbosarlarining qonunchilik talablariga rioya qilish, korrupsiyaga nisbatan muvosiis bo'lish, o'zi rahbarlik qilayotgan tarkibiy bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to'g'risidagi pozitsiyasi, fikr mulohazalari ochiq e'tirof etilgan tadbirlarni ko'rsatish lozim.
4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linma rahbari va uning o'rinbosarlarining nomidan).	
5.	Boshqaruv raisi, Boshqaruv a'zolari va boshqa yuksak	

	lavozimdagi rahbarlar tomonidan o'zi bevosita rahbarlik qilayotgan yo'nalish yoki sohada korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va reja va maqsadlar to'g'risida OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarda qilgan chiqishlari soni.	
III. Xavf-xatarlarni baholash		
6.	Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo'yicha har yillik baholash o'tkazish	Ha o'tkazilgan\yo'q o'tkazilmagan (sabablari ko'rsatiladi) \ jarayonda (qaysi bosqichdaligi ko'rsatiladi).
7.	Hisobot davri uchun Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarda ish jarayonida yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o'rta, past).	Yangi korrupsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning xavflilik darajasi sanab o'tiladi. Qanday korrupsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandi, yangi daraja, bahoni o'zgartirish sabablari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha takliflar. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi.
8.	Hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar.	
9.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni.	Qoldiq tavakkal yuqori bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning foizdagi nisbati ko'rsatiladi.
10.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko'rsatish zarur.

IV. Korrupsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar

11.	Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari va qabul qilingan choralar	Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarining sonini ko'rsatish yoxud aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari reestrini ilova qilish zarur.
12.	Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish.	Har yillik manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalaridagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Har yili manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini amalga oshirishi shart bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalaridagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur.
13.	Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni.	Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarida hisobot davrida ishga qabul qilingan xodimlar soni, Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalaridagi lavozimga nomzodlar tekshiruvi sonini ko'rsatish zarur. Tekshiruv o'tkazilmagan bo'lsa, buning sababini ko'rsatish zarur.
14.	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari sonini, tekshiruvlar natijalari bo'yicha ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Kontragentlar tekshiruvi o'tkazilmagan bo'lsa, buning sababini ko'rsatish talab qilinadi.
15.	Amalga oshiriladigan boshqa korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar	Mavjud bo'lganda ushbu bo'limda ko'rsatilmagan boshqa amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi tadbirlarni ko'rsatish

		lozim.
V. Ta'lim va kommunikatsiya		
16.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish:</p> <p>barcha xodimlar uchun;</p> <p>korrupsiyaviy huquqbuzarlikka eng ko'p moyillik ehtimoli mavjud bo'lgan vazifalar, lavozimlar, funksiyalar va bo'linmalar uchun.</p>	<p>Treninglar turi va shakli, o'qitilgan xodimlar soni, shu jumladan rahbar xodimlar soni, ularning egallab turgan lavozimlari darajasi va ishlab turgan bo'linmalari nomlarini ko'rsatish.</p>
17.	<p>Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarga yangidan ishga olingan xodimlar uchun treninglar o'tkazish.</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglardan (umumiy, tanishuv) o'tgan yangi xodimlarni umumiy yangi xodimlar soniga foizlardagi nisbati treninglar mavzusi kesimida ko'rsatish.</p>
18.	<p>Xodimlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo'linmada amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi choralardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar</p>	<p>Tadbir ishtirokchilarning maqsadli guruhini, ularni soni (imkoni bo'lsa), mavzusi va turini (masalan, tanlovlar, viktorinalar, so'rovnomalar va b. ko'rsatiladi) va uning natijalarini ko'rsatish.</p>
19.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullar tomonidan bajarilgan korrupsiyaga qarshi kurashish me'yorlari mavzusida axborot- tarqatma materiallari.</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zarurati to'g'risidagi, shu jumladan, ularning to'g'ri talqin qilinishi va ularga to'g'ri amal qilish to'g'risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallar soni ko'rsatiladi.</p>
20.	<p>Kombinat xodimlarining xizmatdagi va jamiyatdagi odob-ahloq madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning talablari haqida uzluksiz (muntazam) xabardor qilib turishning boshqa usullari.</p>	<p>Masalan, binolardagi axborot plakatlari va boshqa materiallar, skrinseyverlar, ishchi kompyuterlar ekraniga qo'yiladigan suratlar, eslatmalar, Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar xodimlarining mobil raqamlariga, kontragentlarning mobil raqamlariga muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi turli e'lon va xabarlarini</p>

		doimiy ravishda yo‘llab turish, Kombinatning hamda Ommaviy ijtimoiy tarmoqlarda ham korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xabar va yangiliklarni muntazam yoritib borish va boshqalar.
21.	Fuqarolik jamiyati vakillari (OAV, ijtimoiy tarmoqlar) va kontragentlar ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida birgalikda qo‘shma tadbirlarni o‘tkazish	Fuqarolik jamiyati vakillari (OAV, ijtimoiy tarmoqlar vakillari) va kontragentlar ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar soni, nomlanishi, mohiyati va natijalarini ko‘rsatish (masalan, korrupsiyaga qarshi kurash kuni, korrupsiyaga qarshi mavzudagi ishlar tanlovi). Kombinatning barcha xo‘jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlar kiritilganligi holati yangi kontragentlarning umumiy soniga foizlardagi nisbati.
VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar. Qo‘llangan ta‘sir choralari		
22.	Xatti-harakatlar, shu jumladan, potensial xatti-harakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni/	Xabarlar sonini quyidagi ma‘lumotlarni ham kiritgan holda ko‘rsatish: kelib tushgan sanasi kelib tushgan aloqa kanali, xabar mavzusi, tegishli hisobotni ilova qilish.
23.	Xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to‘g‘risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, ichki normativ hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo‘linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki normativ hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlangan holatlar soni.	Har bir band bo‘yicha holatlar sonini ko‘rsatish.
24.	Qabul qilingan ta‘sir choralari.	Qanday korreksiyalash choralari, shu

		jumladan, intizomiy choralar, ichki nazorat tizimida qanday kamchiliklar aniqlandi va nazoratni kuchaytirish uchun qanday choralar taklif qilindi.
VII. Monitoring va nazorat		
25.	Hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilganligi	<p>Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar tomonidan o'tkazilgan tekshiruv tadbirlari, shu jumladan, ularning sonini quyidagi kesimda ko'rsatish.</p> <p>Tekshiruv obektlari (boshqarma, bo'lim);</p> <p>Tekshiruv mavzusi (masalan, xaridlar, kadrlar, omborxonalar, buxgalteriya);</p> <p>Tekshiruv tadbirlari turi (audit, tavakkal tranzaksiyalari monitoringi yoxud proseduralari va boshqalar);</p> <p>Tekshiruv tadbirlari xarakteri (rejali, rejadan tashqari).</p>
26.	Bo'linmada (korxonada) belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralari sanab o'ting?	<p>Qaysi tartib-taomil yoxud vazifa (funksiya)ni bajarishda qanday qoidabuzarliklar aniqlangan? Aniqlangan holatlar sonini ko'rsatish.</p> <p>Vazifa va tartib-taomillarni bajaruvchi shaxslar uchun qanday tavsiyalar tayyorlangan? Ular qanday rasmiylashtirilgan (masalan, buyruq yoxud boshqa ichki hujjatlar)?</p>

Xulosalar: Kombinat ijro apparatidagi bo'limlar hamda tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish choralari amalga oshirishning asosiy natijalarini ko'rsatish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiy baho berish, basharti imkoni bo'lsa avvalgi davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o'tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik yoxud erishmaganlik sabablarini ko'rsatish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va korrektsiyalovchi tadbirlar rejasi: kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlarni ko'rsatish zarur.

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJdagi
korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha
tizimning holati to‘g‘risidagi hisobotni
shakllantirish va taqdim etish tartibi
to‘g‘risidagi Nizomga 2-ilova

**“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalarda
korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida
202__ yil __chi chorak uchun**

UMUMIY HISOBOT

**I. “Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalar
tomonidan Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida
umumiy axborot¹**

Kombinat ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarning amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi qisqa ma‘lumot, shu jumladan ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalar kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish **tadbirlarini amalga oshirgan bo‘linmalar sonini ko‘rsatish zarur;**

Kombinat ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalar kesimida Korrupsiyaga qarshi kurashish **tadbirlarni amalga oshirmagan bo‘linmalar ko‘rsatiladi,** shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi, amalga oshirilmagan tadbirlar va qisqacha shaklda asosiy sabablarini alohida ko‘rsatish lozim.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalarni tartibga soluvchi va hisobot davrida Kombinat ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalar kesimida tadbir etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy va ichki normativ hujjatlar (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va shu kabilar)ni ko‘rsatish lozim.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Kombinat ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalar tomonidan xavf-xatarlarni baholash ishlari amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirgan va o‘zlarining korrupsiyaviy

¹Ushbu bo‘limda va keyingi o‘rinlarda hisobotning har bir bo‘limi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatish kerak:

– Jamlanma (yig‘ma) ko‘rinishda ijro apparati bo‘linmalari, tizimdagi korxonalar kesimida hisobot davri uchun umumiy ma‘lumotlar keltiriladi. Basharti, zarurat bo‘lsa, alohida bo‘linma va korxonalar va ular bo‘yicha ma‘lumotlar ham ko‘rsatiladi;
– Zarurat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirma tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik\erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish lozim.

xavf-xatarlar matritsasini yangilagan Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatish kerak;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmagan Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatiladi, shuningdek hisobotga ilovada ularning nomi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmaganlik sabablari qisqacha ko'rsatiladi;

Baholash jarayonida yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatiladi. Shuningdek, hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha taklif etilgan va amalga oshirilgan tadbirlar qayd etiladi;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo'yicha nisbati (yuqori, o'rta, past) Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatiladi;

Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida Kombinat uchun yuqori bo'lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun taklif etilayotgan tadbirlarni ko'rsatish lozim (mavjud bo'lgan taqdirda).

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish.

Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiya qilingan va tartibga solingan holatlar soni, shu jumladan, ishga qabul qilish yoxud har yillik deklaratsiya qilish jarayonida² (mavjud bo'lgan taqdirda), ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatiladi;

Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbati, shuningdek, deklaratsiyalangan va tartibga solingan manfaatlar to'qnashuvi holatlari qayd etiladi;

Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar bo'yicha rejalashtirilgan manfaatlar to'qnashuvining har yillik deklaratsiya qilinadigan manfaatlar to'qnashuviga nisbatan ko'rsatkichlari bajarilmagan bo'linma va korxonalar kesimida tahliliy ma'lumotlarni keltirish kerak (masalan, manfaatlar to'qnashuvini barcha darajadagi va bo'g'indagi rahbarlar deklaratsiya qilishlari lozim, amalda esa faqat 50%gina rahbar xodimlar bu topshiriqni bajargan xolos);³

Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy korxonalar kesimida Kombinatda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi va qabul qilingan choralar bo'yicha, shu jumladan, umumiy soni va toifalar kesimida (*masalan, xarid proseduralaridagi, ish*

² Manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish hisobot davrida bajarilgan bo'lsagina axborot to'ldiriladi.

³ Axborot faqat yillik hisobotda to'ldiriladi.

bo'yicha bevosita bo'ysunish natijasida va shu kabilarda) tahliliy ma'lumotlarni keltirish lozim.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Kombinatning barcha turdagi xo'jalik shartnomalariga kiritish holati

Korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini Kombinatning barcha xo'jalik shartnomalariga (hisobot davrida tuzilgan shartnomalarga nisbatan qoidalar kiritilgan shartnomalarning foizdagi nisbati ko'rsatiladi) kiritish bo'yicha, shu jumladan Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida, shuningdek kontragentlar kesimida tahliliy va statistik ma'lumotlarni keltirish, kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etganlik holatlari soni va sabablarini ko'rsatish;

Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida Kombinatning kontragentlari (ishbilarmon hamkorlar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tahliliy va statistik ma'lumotlarni ko'rsatish.

“Olmaliq KMK” AJning kontragentlarini tekshirish holati

Hisobot davrida kontragentlar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar soni, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy korxonalar kesimida ma'lumotlar ko'rsatiladi.

“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati yoxud tarkibiy bo'linmalarda ishlash istagini bildirgan nomzodlarni tekshirish holati

Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida Kombinatga yoxud uning tarkibiy bo'linmalariga ishga kirish istagini bildirgan nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni ko'rsatiladi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishning natijalarini Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida: o'qitilgan xodimlarning jami xodimlarga foizdagi nisbati, ta'lim shakli (bevosita/onlayn/offlayn) ko'rsatiladi;

Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida o'qitish darajasi past bo'lgan korrupsiyaga qarshi ko'nikmalarga oid axborot ko'rsatiladi (rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga taqqoslangan holda);

Kombinat hamda uning tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kommunikatsiya turlari va sonini Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linmalar kesimida (masalan, tarqatma materiallar, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish) ko'rsatiladi;

Hisobot shaklining ushbu Bo'limida shuningdek, Kombinatda o'tkazilgan keng ko'lamdagi (respublika darajasidagi yoxud xalqaro formatdagi) alohida tadbirlar ajratib ko'rsatilishi mumkin.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

Hisobot davrida Kombinat xodimlari ishtirokidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi, xizmatdagi o'dob-ahloq qoidalari, boshqa korrupsiyaviy qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar ijro apparati bo'limlari, tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatiladi;

Mansab vazifalari va tartib-taomillar kesimida olingan tahliliy ma'lumotlar (masalan, xaridlar jarayonida, kadrlarni ishga qabul qilish bilan bog'liq tartib-taomillar kesimida) keltiriladi;

Olingan xabarlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar qoidabuzarliklar kesimida keltiriladi (masalan, korrupsiyaviy xatti-harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi, kelishuv tartib-taomillarini proseduralarini buzish va boshqalar);

Olingan xabarlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi (masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar).

VII. Monitoring va nazorat⁴

Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy korxonalar kesimida hisobot davrida mavjud (amaldagi) korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilganlik holati to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar keltiriladi, jumladan, tekshiruvlar o'tkazilgan bo'linma va korxonalar soni, shuningdek, tekshiruv o'tkazilgan vazifalar va tartib-taomillarining davriyligi va xarakteri to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar (rejadagi, rejadan tashqari) ko'rsatiladi;

Kombinat ijro apparati bo'limlari hamda tarkibiy bo'linma kesimida tekshiruvlar o'tkazilmagan bo'linmalar soni alohida ko'rsatiladi, ilovada ularning nomi hamda tekshiruvlar o'tkazilmaganligining asosiy sabablari qisqacha qayd etiladi;

O'tkazilgan tekshiruvlar natijalari to'g'risidagi umumiy axborot ko'rsatiladi shu jumladan, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati qayd etiladi. Qoidabuzarliklar mavjud bo'lsa, mazkur hisobotning VIII-bo'limiga havola beriladi.

⁴ Tashkilotda hisobot davrida korrupsiyaga qarshi proseduralariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish metodikasiga muvofiq o'tkazilgan tadbirlar yakunlari bo'yicha umumiy tahliliy axborot aks ettiriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va qo‘llangan ta’sir choralari

Kombinat ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi talablarning buzilganligi to‘g‘risida Ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalar kesimida tahliliy ma’lumotlar ko‘rsatiladi, shu jumladan:

qoidabuzarliklarning umumiy soni;

qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi axborot manbalari bo‘yicha tuzilmasi (“ishonch telefoni”, bevosita xabar berish, monitoring va nazorat natijalari va boshqalar);

Kombinatning ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar, funksiyalar hamda tartib-taomillar kesimida (xaridlar, kadrlarga oid masalalar va boshqalar) qoidabuzarliklar tuzilmasi;

Kombinat ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalarda qabul qilingan ta’sir choralari to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlarni ijro apparatining bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatish, shu jumladan:

o‘tkazilgan umumiy profilaktik tadbirlar soni va aniqlangan barcha qoidabuzarliklar bo‘yicha ta’sir choralari ko‘rilganligi yoxud ko‘rilmaganligi;

ta’sir choralari turlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar (aybdorlarni javobgarlikka tortish, shu jumladan, javobgarlik turlari kesimida (intizomiy, ma’muriy yoxud jinoiy javobgarlikka tortish bo‘yicha kiritilgan takliflar soni);

Kombinat ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalarning ishlab chiqarish jarayonlarni belgilovchi hujjatlar va ichki normativ hujjatlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish va boshqalar), shu jumladan, zarur bo‘lgan holda qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qanday tadbirlarni tadbiq etish taklif etilganligi hamda hisobot davrida qanday tadbirlar tadbiq etilganligi ko‘rsatiladi.

IX. Xulosalar

Kombinat ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalar kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish choralari amalga oshirishning asosiy natijalari ko‘rsatiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiy baho beriladi. Zaruratga ko‘ra avvalgi davrlardagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o‘tkaziladi, qoniqarli natijalarga erishganlik yoxud erishmaganlik sabablari qayd etiladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Navbatdagi hisobot davrida “Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo‘limlari hamda tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko‘rsatkichlarni ijro apparati bo‘limlari, tarkibiy bo‘linmalar kesimida yanada yaxshilash va takomillashtirish imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ko‘rsatiladi.

